

XONZODABEGIM JAMOLOVA

BAXT
TONGI



KITOBIM



SIRINCHI

01.2
J 24

SHE'RLAR

**Kitob shu erda ko'satilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart**

ilgarigi berilmalar miqdori _____


020.

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

XONZODABEGIM JAMOLOVA

BAXT TONGI

She'rlar



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

Nashr uchun mas'ul:
Botirjon ERGASHEV,

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushma raisining yoshlar bilan
ishlash bo'yicha o'rningbosari*

Mas'ul muharrirlar:
Mahmud Toir, Zohidjon Olov

Aziz kitobxon! Umidli yosh ijodkor Xonzodabegim Jamolova she'rlarini o'qir ekansiz, yangi ruh, yangi kaiyiyatda o'z so'zini aytishga, o'ziga loyiq yo'l topishga intilayotgan iste'dod bilan suhbatlashasiz, sirlashasiz, ba'zan samimiylashasiz...

Uning ota-onasi, Vatan, do'stlik, mehr-muhabbat, vafo-sadoqat haqidagi toza tuyg'ulari to'kilgan bandlari sizni mulohazaga chorlaydi. Xonzodabeginning yuz hayrat va yuz hayajon bilan hukmingizga havola etayotgan she'riy guldaстasi sizning ko'ngil xazinangizdan munosib o'rnini topishiga shubhamiz yo'q.

*Ushbu kitob 2019-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
she'riyat kengashi tomonidan nashrga tavsiya qilinib,
"Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.*

ISBN 978-9943-6779-7-5



© X. Jamolova, 2020
© "Adabiyot", 2020

SO'Z - BO'YOQLARSIZ HAM GO'ZAL, MO'JIZA...

Yurtimiz yoshlarining ma'naviyatini yuksaltirish, ularning erkin va samarali ijod qilishi uchun keng imkoniyatlar yaratishga amaliy yondashilmoqda. Albatta, bu vazifalar ijrosini ta'minlashda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan hayotga tatbiq etilayotgan ijodiy loyihamalar muhim qadr-u qimatga ega bo'lmoqda.

Jumladan, 2014-yildan boshlab Uyushma qoshidagi "Ijod" fondi tomonidan "Birinchi kitobim" loyihasining joriy qilingani ana shu ajoyib sa'y-harakatlar in'ikosidir. Iqtidorli yoshlarni kashf etish, ularning ilk ijodiy namunalarini adabiyotsevar xalqimizga havola qilish niyatida badiiy to'plamlar chop etilyapti. Kitoblarning ko'p ming nusxa-da nashr etilayotgani va mamlakatimizdagi barcha ma'naviyat maskanlariga bepul in'om qilinayotgani tahsinga sazovor, albatta.

Tabiiyki, bunday go'zal jarayonda Toshkent viloyati yosh ijodkorlari ham chetda qolayotgani yo'q. Bog'lari tog'larga, tog'lari samoga tutash viloyatning so'lim tabiatidan

zavqlanmay, zavqlanganda she'r yozmay bo'-larkanmi?! Ortda qolgan qisqa fursat ichida bir qator o'g'il-qizlarning ilk kitoblari chop etilgani so'zimiz tasdig'idir. Ular safiga endi yana bir umidli ijodkorimiz Xonzodabegim Jamolova ham qo'shilmoqda.

Avvalo, yosh ijodkorimizni ushbu muvafiqiyati bilan, ya'ni ijodiy namunalari respublikamizning eng dongdor, eng tiyrak nigohli ustoz shoir-u yozuvchilar e'tiborini qozongani bilan va jiddiy e'tirof – "Birinchi kitobim" loyihasiga munosib ko'rilmagani bilan qutlaymiz.

Endi muallifimizning ushbu kitob uchun saralangan she'rlari haqida bir og'izgina to'xtalsak.

Xonzodabeginning tabiatи, fe'l-atvori yozayotgan she'rlarida aks etadi. Bu chinakam shoir uchun, adib uchun, nazarimda, vijdon qo'ng'irog'ining o'zi! U qalbidagi kechinmalarni ko'p ham pardozlamaydi, so'zga ortiqcha bezak bermaydi – yo'q. Ko'proq tabiiylikka, so'zlarning o'zi aslida bo'yoqlarsiz ham go'zalligini, mo'jiza ekanini ko'rsatishga intiladi va bunga qaysidir ma'noda erishgan:

*Orzularni yoqdim dastalab,
Kuyib ketdi yurak-bag'rim ham.*

*Bu dunyoning mayxonalarini
Quyib ichar ko'zlarimga g'am.*

*Yig'laganim sari tomchilab,
Oqib borgum senga, Xudovand.
Yolg'onlardan tilanib umid,
O'z-o'zimga beraverdim pand.*

Yosh shoiramizning hayotga, hayotdagi ko'plab holatlarga, masalan, baxt va qayg'u, tong va tun, visol va ayriliq, oq va qora kabi azaliy tushunchalarga o'z munosabati bor. She'rlari orasida butunlay g'amgin yoki to'laligicha shodonini topolmaysiz. Yoki butunlay qora rangdagi bandlarni uchratmaysiz. Bari qorishiq holda keladi. Axir hayotning o'zi shunday-ku! To'rt fasl ham qish bo'lmaydi. Bu Xonzodabeginning yoshiga mos fikrlayotgani, olamni o'zi bo'lib idrok etayotganining ham amaliy ifodasi aslida:

*Ming yillik dard bilan alla avrasan,
So'zingni, ko'zingni, o'zingni, ey do'st,
Kechikib, ichikib ko'rgali keldim,
Dilbuloq keltirdim mehrga tashna,
To'kilgali keldim, to'liali keldim.*

U dunyo, keling, sal aniqroq aytaylik, jamiyatni o'z nigohi bilan ko'rishni, voqe-a-hodi-

salarni o'z tuyg'ulari bilan qabul qilishni yotqiradi. Natijada siz uning toza, samimiy va biroz "hurkak" misralarini avval ham o'qigan-dek bo'lasiz, kutilmagan tashbehlarini, istehzo-yu qochirimlarini qabul qilishga qiynal-maysiz.

Xonzodabegim – hali talaba. Demak, uning katta yutuqlari oldinda. Buning uchun u o'qib-o'rganish, izlanishdan tolmaydi. Kelgusi she'rlarida o'z tuyg'ularini yanada tiniqroq ochib berishiga, ko'nglini she'r muhiblariga to'la namoyon etishi-ga shubha yo'q. Buning uchun muallifimiz o'z mahoratini oshirib borib, buyuk adabi-yot daryolaridan qonib-qonib ichmoqlik lozimligini yaxshi biladi. Bu mashaqqatli yo'lida ijodkor singlimizga omad tilaymiz!

Mahmud TOIR,

O'zbekiston xalq shoiri.

VATAN

Tomirimda gullagan bog'im – Vatan!

Tog'laring yelkamni tutguvchi inim.

Yashil vodiylaring kengliklarida

O'mbaloq oshadi qizg'aldoq ko'nglim.

Bayrog'ing ko'ksiga to'kilgan yulduz,

Ertangni yoritib tursin ko'zlarim.

Sening noming aytib nurlarni ho'plab

Sabuhiy tonglarimga so'zladim.

Tunlar xayolimdan chiqaman sizib:

"Vatan kutayapti, menga ilhaq U".

Kaftlari yorilib ketgan Oroljon,

Senga ko'zlarimdan quyayinmi suv?!

Tushimga kiribsan ovozing munglig',

"Yo Cho'lpon, Yo Usmon, bolam, qaydasan?"

Kechalar shu yerni bag'ringga bosib,

Ming yillik dard bilan alla aytasan.

Kel! Menga bersang-chi, qancha mushkulot,

Qo'rqlayman, kuragim kurashlarniki.

Axir menga bobom aytib ketgandek:

"Bu zamon, bu marra siz, yoshlarniki!"

Femurly qizdirman, Xonzoda qizman.

ALPOMISHGA

Yig'idan qoraygan shu ko'zlarimga
Siz g'alaba bo'lib kirgansiz, begin.
Faqat sajdalarda bosh eggan viqor,
Ko'rsam, kelaverar "Baxtliman!" degim.

Raqiblar cho'chiydi, "Mana, o'zbek!" deb,
Alpomishlar yodi bo'lar madadkor.
Maydonni titratsa sherhaybat yigit,
Xaloyiq hayqirar: "Olg'a, yashavooooor!"

Duoga qo'l ochar bobom Temuriy,
Birovga suyanmay yuksaling, tog'im.
Shohsupada bugun siz sabab baland
Ummon ortida ham O'zbek bayrog'i.

Tomirni to'latib oqadi g'urur,
Ko'zimga baxtiyor yig'i to'ladi.
"Vatan!" desam, siz kulib turganday
Yelkamda qanotlar paydo bo'ladi.

Qutlov chog'i mudom saflarda bo'ling,
Bir qiz yashar eslab duolarida.
Birinchisiz! Birinchi bo'lib qolasiz
Butun dunyoga-yu, mening dunyomda.

XONZODAMAN

Men qanday qiz?
 Burgut ko'zlarin o'pib,
 Olovlar labida raqs tushgan oqqush.
 To'qson bor yiqilib, yuz bora turib,
 Yiqilib-yengilib maydon tuqqan kuch.

Tug'ildim osmonday erka ruh bilan,
 Bag'rida ulg'ayib quyoshistonning.
 Yuksak marralarga eltar kuchim bor,
 Yelkamda opichlab O'zbekistonni.

Ruhimda To'maris qilich o'ynatib,
 Yovning ko'zlariga soladi g'ulu.
 Magar jangda bayroq ko'tarsam sen dêb,
 Yursam, qadamimdan qo'rqudi qo'rquv.

Ko'nglimki, gullarga egiz yaralmish,
 Nazmiy iforlarga oshufta bog'man.
 Sel kelsa, kiprikning safi-la to'sib,
 Ko'ksi o'qlar tutgan qoyaman, tog'man.

Ortimdan ergashib yuradi osmon,
 Hali kashf qilinmagan tillarang so'zman.
 Hurriyat deb umrini sulhlarga tikkan
 Temuriy qizdirmam, Xonzoda qizman.

BAXT TONGI

Bu tong bir ishq tug'ilmish, birodar,
bir shirin,
bir toza,
bir ozod.

Ruhimni eltadi o'ziga

Ishq – qanot!

Yellarning sochlarin tortqilab

Qushchalar salavot aytadi,

Sog'inchrang ko'yakda ko'nglingga

Baxt qaytadi!

Labimdan toshadi so'zlarim,

Men aytsam,

yuz aytdim,

ming aytdim.

Sarsari yillarning bag'rige

She'r bo'lib qaytdim!

O, bu tong!

Bulutni quchoqlab yozaman,

So'zlardan arg'imchoq yasaydi,

Ko'nglimning eng olis yerida

Sen bilmas chaqmoqlar yashaydi.

Bu tong bir ishq tug'ilmish, habibim,

Ming yillab kutgani bu dilning,

Pichirlab yig'layman ko'nglimga:

Xush kelding!

Xush kelding!

Xush kelding!

PUSHKINGA

Ko'zingiz shotutdek to'kilgan umid,
Yuzimga urildi bir hovuch nigoh.
Shamollar boshiga solib yopinchiq
Mening qismatimni kuylar tiyramoh!

Siz bu tun nenie dur o'ylaysiz jimib,
Ruhimni bo'g'izlar go'yo sukunat,
Lahzalik visolning barmoqlaridan
To'kilib boryapti ishqim – omonat.

Ming yillar qa'ridan shoshdim baxt bo'lib,
Hovliqib, talpinib, turtinib uchdim,
Bazo'r qo'nim topgan she'r stolingizdan
Uchib ketmoqlikka yetmadi kuchim...

• 11 •

BAXTLI QO'SHIQ

Issiq ko'z yoshimning harori ichra
Quyulib-quyulib to'qilmoqda she'r.
Kipriklar uchiga ilashgan sog'inch
Tashrifingni sezib to'kilmoqda, kel!

Kel! Bo'rondek to'zg'it to'rt tomonimni,
Ichimdagi jimlik qulog'ini och
Va isyon ko'targin yig'latganlarga,
Azob kulin ko'kka bitta-bitta soch.

Jang boshlasang magar, ey bahodirim, Я
Suyansam, suyasang, hech yiqlmaymiz.
Baland hilpiratib baxt bayrog'ini,
Qayg'u lashkarini kuliiiib yengamiz.

Azizim, chalinib ishq qo'ng'irog'i
Uyg'otar tonglarni masrur erkalab.
Ko'zlarimda suzar ishqning kemasi,
Qarasang, ko'rinar oppoq yelkanlar.

Bir toza nafaslar o'ynar havoda,
Kelganiningni sezib dil urar "duk-duk".
Yig'loqi kunlarim "Alvido!" yana,
Baxtiyor ko'zyoshlar, ko'ngilga qulluq!

Quturib, o'krib, ayqirib...


OVUNCH

Yetim tun ingraydi mohning bag'rida,
Osmon hovuzida suzar og'riqlar.
Shabning ko'rpasiga o'ranib olib
Har kecha yulduzlar yig'laydi ingrab.

Azob qaynab chiqar yerning qa'ridan,
Havolar bo'g'ilib oladir nafas.
Qir-adir bag'rini qonlarga bo'yab,
Lolaqizg'aldoqzor bosh ko'tarar, bas!

Tushida burgutga do'ndi musicha,
Tushida kapalak bo'lishdi qurtlar.
Yetim tunga tongni hadyalar qilib,
Mehridan sadaqa beradir qushlar...

To'rt qaynab...
Va qaynab...
Unutmasa...
Sen sog'...



Yus poshlly salillid kelodini,

Hilioni "dep o'lib", pasdrip...

ISYONKOR

Dod dedim, shu kecha dod dedim,
Tushun, ey odamizod, dedim.
Isyonkor shamollar elchidek,
U endi hijrondan shod, dedim.

Avvalim, oxirim, zohirim,
Ko'ksimga muhabbat o'qlarin
Bexato qadagan mohirim,
Bir dardlar ichinda tentisam,
Oshiqqa baxt-mukofot, dedim.

Yursam-u, yo'llardan gul unsa,
Men boqsam, ko'zlarining nur bo'lsa
Va senga eltar bir yo'l bo'lsa,
Tangrim deb O'ziga yolvorsam,
Baxtlarga to'lsaydi xotirim.
Avvalim, oxirim, zohirim!

Ko'klamlar ko'z ochar ko'nglimda,
Bodomzor bildirar ishq sirin.
Ko'ksimda she'r hidi gupurar,
Hislarim – binafsha, nastarin...

Yuz boshli ayriliq kelodir,
"Hijron!" deb o'kirib, baqirib...

Quturib, o'kirib, ayqirib...
Kel, meni qutqar, ey botirim -
Muhabbat – avvalim, oxirim...

XAYOL

To'yib yig'lasang...
birov bilmasa
Robbingdan bo'lak.
Uyg'onib ketsa umid,
Og'riqlar ko'ksiga
Urilsa qulf.
Boshing oqsa baxt tomon,
O'zing bilmas yerlar chorlasa.
Ketsang, ketaversang...
Baxt mulkida adashib qolsang.
To'rt tomoning Uni eslatsa
Va qaytishga yo'lni unutsang...
Unutmasa hech kim,
Sen sog'inmasang...

KELDIM

Ey, do'st – dil mulkimga yaqin, qadrdon,
Ko'nglingni ziyorat qilgali keldim.
Ko'ksimga xavotir tushdi nogahon,
Yuraging omonmi, bilgali keldim!

So'zingni, ko'zingni, o'zingni, ey do'st,
Kechikib, ichikib ko'rgali keldim,
Dilbulloq keltirdim mehrga tashna,
To'kilgali keldim, to'liali keldim.

Anorday kesilib qonab borar qalb,
Diydor malhamini surgali keldim.
Hayot – beshafqat jang boshlassa, qo'rqlama,
Bir umr yoningda turgali keldim.

Bir boshga ming savdo soladi taqdir,
Yelkangga bosh qo'yib ko'ngali keldim.
Neki dard bermasin, qayg'u bo'lmasin,
"Do'stim, men borman-ku!" degali keldim.

Ey, do'st – dil mulkimga yaqin, qadrdon,
Ko'nglingni ziyorat qilgali keldim.
Ko'ksimga xavotir tushdi nogahon,
Yuraging omonmi, bilgali keldim!

YOLG'IZLIK

Kiprigimda uxlар yolg'izlik,
 Nigohimda sarhadsiz kutuv.
 Tuyg'u qulog'iga aytilar azon,
 Ichimda bir sado pichirlar – yohu!
 Jimjitlikka suyandi borliq,
 Qadam qo'ysam, cho'chimasmikan?
 Bir xo'rsinsam namozshom mahal,
 Tog' titrasa, dil sinmasmikan?
 O'ylarimga botib borar kun,
 Ufq yuziga yuguradi qon.
 "Bismilloh" deb uyg'onar hayot,
 "Bismilloh"dan quvilar shayton.
 O, bir fursat to'xtaydi hayot,
 To'xtagandek lahzalik umr.
 "Ya Alloh!" deb yukinsam, osmon
 Manim bo'lib yog'ib beradur.
 Soya ichra cho'kar daraxtlar,
 Bir og'ir o'y, bir og'ir nafas,
 Tomchilarga labimni bossam,
 Parchalandi hijroniy qafas.
 Gullab borar tomirimda ishq,
 Yuragimga botar ildizi.
 Hovuchimga sig'magan duo
 Ko'zlarimdan oqadir sizib.
 Yo'l ko'rinxur ko'ngil yoqlardan



Va o'zimni chaqiraman: "Keeeel!"
Yolg'izlik jon berar kipriklarimda,
Bokira hislardan tug'iladi she'r...

SAVOL

"Sizni yaxshi ko'raman" dedi,
Yonog'imda gurkiradi cho'g',
Shu lahzada go'yoki mendan
O'zga biror baxtli odam yo'q.

Yaxshiyamki, hayo pardasi
Meros azal Momo Havvordan.
Kipriklarim yerga sanchildi
"Siz-chi?" degan hurkak savoldan.

Tuyg'ularning lablari yashil,
Ko'zlaridan titroq to'kilar.
Asl oshiq tilidan emas,
Nigohidan sevgi o'qilar.

YOMG'IRLI KAYFIYAT

Hansirab nafasin yutayotir yer,
 Havorang tuyg'ular suzar ko'zimda.
 Har to'rt yon labiga sukutni chizib,
 Yomg'irlar ergashib kelar izimdan.

Manavi chinorlar – ikki yuz yillik,
 Ko'ksi chaqmoqlarda qoraygan qismat.
 Bag'riga chizilgan o'yiq qo'shyurak,
 Qachondir lovullab o'chgan harorat...

Osmonga ko'zgusin tutgan ko'lmaklar
 Mening qadamimdan unsiz sinadi.
 Kipriklar qazigan ko'zimdan daryo,
 Yuragimdan xarsangtoshlar quladi.

Yomg'irga qasdlashib yig'layapman-ku,
 Sitildi ko'ngilning sog'inch choklari.
 Olisda bobomning qabri hurpayib,
 Tonggacha yana bir maysa ko'klaydi.

Ajab, shitirlashib sirlashgan ko'kning
 Bargdagi titroqcha qolmadi holi.
 Shu lahza kimningdur yodidan o'chdim
 Loyqalanib ketgan xayol misoli.

OG'RIQ

Ona, chap ko'ksimda boshlanar isyon,
Soxta maqtovlarning yo'qmi oxiri?!
Bu dunyo bir menga tordek, onajon,
Ko'nglim osmonida sog'inch yomg'iri...

Mening dushmanimdir qora bulutlar,
Bunda quyoshimning nurlari qani?
Umrin daftarida achchiq sukutlar,
Men sizni sog'inib yig'lagan sari.

Ona, meni kimga ishondingiz, oh,
Endi sog'inmoq ham gunohmi, ayting.
Unda men eng katta gunohkor qizman,
Bo'g'ziga alamlar to'lgan hayotning...

O'sha-o'sha botir qizingizman men,
Qarang, g'amilar mening o'gay singlimdir...
Bahor ichra qishda qolgan izman men,
Sovuq yegan gullar harir ko'nglimdir.

O'n sakkizim o'tib borar har onda,
Baxtga ko'zim intiq, (quchoqlarim keng).
Keling, tushlarimda yolg'on bo'lsa-da,
"Sen mening bolamsan, ona qizim" deng.

SO'NGSO'Z

Judayam kech kirdim hayotingizga,
 Dunyoni anglamay sizga keldim duch.
 Qo'nim joy topolmay ko'zlariningizdan,
 Qarang, tentiyapman ilojsiz, sarxush.

Har to'rt yon yodingiz kishanband etib,
 Qanotimni kesib tashladi xotir,
 Yelkamda zilday ishq, tortib borarman
 Mitti yuragimda ulkaan xavotir.

Qish demay gullagan besabr bahor,
 Muzdek kaftlarini ko'ksimga tirar.
 Namiqqan kiprigim kengliklarida
 Sog'inchdek qadimiyo qo'shiq yaltirar.

Ovozsiz kuychiman, bo'g'zim to'la so'z,
 Keragidan ortiq dilim deb kuydim.
 Eng toza notada, sizli tuyg'uda
 Men yig'lab, dunyoni uyg'otib qo'ydim.

KO'KSIMDAGI YO'LBARSLAR

Ich-ichida yo'lbars o'kirib,

Sirtda mayin jilmaygan ayol.

H. Xudoyberdiyeva

Yo'llar tortqilaydi xayollarimni,

Tovoni achishib avto sudralar.

Qulogchin ichida kimdir she'r o'qir,

Yuragimni timdalab!

Daraxtlar sochiga turtinib shamol,

Ko'kning yuragiga yomg'ir sanchilar.

Sovqotgan oynaga yurakcha chizar

Tomchilar!

Atrofimda uchar pushti havolar,

Nafasimdan ungan sog'inchgullarim.

Qarang, sochimdan to tovonim poklab,

Yig'ladim...

Salavot o'qiysi ko'k farishtalari,

Ko'zimdan to'kilib borar havaslar.

Bir o'ktam, osuda oladi orom

Ko'ksimidagi yo'lbarslar...

ENG GO'ZAL TILAK

Kunduzlarning xayolini ko'zing ichgan,
 Tunlarimning tushlarida orom yo'qdir.
 Agar ishqing bedavo deb bilar ersang,
 Menga o'sha bedavolik dardin yuqtir.

Chirsillab

Daryo sensan, dengiz sensan, to'lqin sensan,
 Ko'zlarining ashki ichra oqay o'zim.
 Ey to'fonim, mudom banding bo'loyin man,
 Ishq mulkiga yuragingdan boqay o'zim.

Bir toza dil istab necha ming yo'l yurdim,
 Dil siniqlar tizzam quchib qontalashdir.
 Ey avvalim, ko'zlarida Xudo borim,
 Adashtirsang, shu ko'zlarda adashtirgin.

She'rlar aytib yuragingga kirib borsam,
 Tashrif qilsang, jannatlardan uy qursaydim.
 Farishtalar havas bilan mo'ltirasa,
 Kaftlarimda zam-zam suvlar ichirsaydim.

Hovuch-hovuch haroratlar ichra qolib,
 Dilim faqat salavotlar yodlayversa.
 Ikki dunyo qovurg'angdan bunyod ersam,
 Tangrim o'zi yuragingga joylayversa....

KO'KSI DADAJONIMGA

(*Bolaligimda dadam doim: "Seni kimdir xafa qilsa, qulog'ini kesib olaman!" – deb yupatardi. Hozir ham dadamdan mustahkamroq qo'rg'onim yo'qligini yaxshi bilaman.*)

Dadajon, hasratim daryodek toshdi,
Yelkani sarbaland kema bo'lgum bor.
Mudroq hislarimni uyg'otib qo'ygan
Shamol yuragida yashab qolgum bor.

Chiziqlar tushibdi peshonangizga,
Sochlaringiz olgan dardimiz terib.
Dunyodan-da katta orzular bilan
Kaftingizda o'sdik ko'ksimiz kerib.

Qizlarning sochini o'rsa onasi,
Mudom dilingizni yig'lab tilganman.
Shoirlar qalami ona deb chiqqan,
Men-chi, tug'iliboq "Dada" deganman.

Bugun ichikiblar ketdi yuragim,
Sog'inchlar dilimni tildi, dadajon.
Qulog'ini kesib oling ularning,
Qizingizni xafa qildi, dadajon.

TUG'ILISH

Sukunatga chayilgan tun...
 Shamollar visoltalab oshiqdek
 Xazonlar qo'yniga kirar xastahol,
 Mening yuragimda bir o't yonadi,
 Chirsillab,
 Qaynab,
 Bir tutab,
 O'chirmoq uchun
 Ko'ylaklari ho'l, kirib keladi bahor.
 Osmon qo'rgoshin soladi, yerning
 Zirqirab ketadi keksa ildizi.
 Yig'loqi bulutlar ufqni quchoqlab,
 Xo'rsinib-xo'rsinib nafas yutar jiiiiim...
 Parchalanib ketar butun xayollar,
 Unda faqat bir ishq ko'rdim – qanotlari oq.
 Tushlarimda bezovta uvlar, pishqirar
 Ikkimiz uchrashmay qolgan o'sha dengiz bo'yli
 Va kulga aylangan gulxanli qirg'oq.
 Shab jimlikni yutib borar tobora,
 Yulduzlar berkinib qazib borar choh.
 Ko'zida vahima, to'lg'oq uyg'onar,
 Oy-kuni yaqinlab qolgan tiyramoh.
 Sitilib ketadi ko'kning choklari,
 Terga botib kuchsiz tinchir g'alayon.
 Shabnam yuzlarini o'pib pokiza
 Bir jannat nafasli tong tug'ilalar, tong!

DAIMI FERGA **OVOZ**

Uzoqdan miltillar g'amgin chiroqlar,
Sochlari yoyilgan shab yurar izg'ib.
Kechalar bag'rida boshlanar to'lg'oq,
Maysalar labidan sog'inch tug'ilib.

Bo'ri "uvv" tortganda ko'zingdagi qush
Xavotirda juftin pinjiga kirar.
Kishanband tuyg'uning qanotlari qon,
Ichimda yarador yo'lbars o'kirar.

ESLATMA

Seni unutishsa, fojia emas,
Aziz avliyolar unutilganda.
Hozir yer ustida odam bo'lmasdi,
Hamma unutganni yerlar yutganda.

O'chmog'i tayindir azal yonganning,
Kelganning ketmog'i qismatdur, bilsang.
Tayyor tur biron kun ketmoq uchun ham,
Kimningdir ko'ngliga kelmoqchi bo'lsang.

UNDOV

Ovozingdan balandroooq baqir,
Baxtiyor kunlaring uyg'onib ketsin.
Bir umr quvonchdan qutulolmagin,
Sog'inchlar ham hatto sog'inib kelsin.

Xumoringdan chiqquncha yig'lab,
Hamma ko'z yoshingni tugatib qo'yma.
Shabnamga chayilgan tongni simirib,
Shodlik suvlarini ichaver, to'yma.

Ko'zingni shart yumib, kechib ket, yetar,
Sendan kechganlardan bitta-bittalab!
Mard bo'lib o'ch olgin sen nomardlardan,
Qayg'u lashkarlari qidirsin charchab.

Tutqich bermagin, vaqt – berkinmachoq,
Eng go'zal amallar bag'rige berkin.
Kecha seni mensimay kulganlarga qasd,
Yengilma, "Qo'limdan keladi!" degin.

Tizzalaring qonab, yuraging qonab,
Tirmash, cho'qqilarni maqsad qil, do'stim.
Peshonang yorilmasa hisobmas, faqat
Yig'lama, tog'larga intilib o'sgin.

XAVOTIR

Orzularni yoqdim dastalab,
Kuyib ketdi yurak-bag'rim ham.
Bu dunyoning mayxonalari
Quyib ichar ko'zlarimga g'am.

Yig'laganim sari tomchilab,
Oqib borgum senga, Xudovand.
Yolg'onlardan tilanib umid,
O'z-o'zimga beraverdim pand.

Adolatdan so'zlamayman, bas,
Kesilgan til, qontalash dilim.
Manzilimga yetmasdan turib,
Ich-ichimdan quladim, sindim.

Chinqiradi ko'zimdagi yosh,
O'z tanidan haydalgan ruhman.
Ko'zlarimda namozshom gullar,
Jon uzsam ham, umidni uzmam.

O'gaylashib borar bu borliq,
Yashayapman o'zimdan xoli.
Men sizlarni kechirdim, ammo
Tutmasaydi orzum uvoli.

Panalarda vijdon narxlashmang,
 U ko'rар-ku! Sig'ar haddingiz.
 Do'st, qo'rqaman – orzularimdek
 Kuymasmi... deb oxiratingiz...

Sendan najot istayman, Alloh...
 Bir halovat ulash ruhimga...

MEN BORMAN

Sen qo'rqma!
 Osmanni ushlab turaman.
 Shu meni suyagan yelkalaring-la
 Bari g'azablar-u og'riqni quvib
 xotirjaaaam
 Qalbimni tingla...
 Qaqragan dilingni chanqog'i uchun yig'layman,
 Yutoqib sog'inchdan kipriklarim gullasa,
 Bu dunyoga bir bora keldim endi,
 Seni baxtli qilmasdan o'lmayman!
 Xavotir olma.
 Bizniki bo'ladi eng go'zal taqdir,
 Sen ishon,
 Hali baxtlar kelar ostonamizga
 Bizni bog'lab turar bir rishta mubham,
 Endi yecholmaydi O'zidan o'zga.

...GA

Do'st, yuragimni sevarmi dardlar?
Kipriklarim g'am ichib o'sdi.
Qo'lim yetmay qoldi, orzular,
Na-da kulib... Na o'ksib o'sdim.

Ming mil yurib horigan o'ydek,
Men ko'ksingda qotgan yarangman.
Bir ro'shnolik berolmay senga,
Faqat "do'st" demoqqa yarayman.

Kechirolsang, kechirgin meni,
Nohaq araz, og'riqlarim-chun.
Qandoq dilsan, malol olmaysan,
Hayotingda borliklarim-chun.

Dushman toshmas, bo'hton o'qtaldi,
Xudo dedim, taqdirga yo'ydim.
Yiqilmadim – kurashdim, ammo
Yuragimni sindirib qo'ydim.

Shundan ko'zim yoshlimi mudom,
Shafqatsizroq o'sibman, bilsam?!
"Yuzimga tupurgin, yuzimga tupur,
Agar senga xiyonat qilsam".

Do'st, o'zingni ehtiyot qilgin,
 Duolarim asrasin har on.
 Men uchun ham xasdek dunyoda
 Baxtli bo'lib yashayver omon!

YUSUF SINGLISI

Men, yig'layverib ko'zлari ko'r bo'lган
 Yusuf singlisi,
 Chorasiz tug'ilган eng so'nggi imkon.
 Hamma eshidiga zanjir ilinib, men emas,
 Mening ichimdadur – Kulbai ahson.
 Men, taxmonlar ichida yo'qolgan kitob,
 Boshidin to oxir ishqqa atalgan,
 Bir dengizman labi suvsirab,
 Ko'zлariga tuproqlar to'lган,
 Men, isyon tomiriga quyilgan jimlik,
 Eng qadim qo'shiqman – kuylari g'amgin.
 Yetti yil Alpini tushida ko'rib,
 Yuragi zindonga aylangan Barchin.
 Men, kuzlar ichida adashgan bahor,
 Ismini xazonlar qo'ygan mitti gul.
 Avvalidan boshlab qiyonoq-uqubat
 Manzili baxt bilan tugaydigan yo'l...

KENJA BOTIRGA

Yuragimda qadamlar,
bir... ikki... uch.... sanayman,
Kelyapsiz, yo'ldasiz qaydadur shoshib men uchun.
Bir dasta gul tutib ko'zlariningiz sog'inchrang,
Lekin qismatimda qizil chiroqlar nechun?

Sezaman, azaldan shunday yaralmish manglay,
Kutish va ko'nikish qiz deganga xos.
Mening dard to'latgan o'tmishim bor-ku, siz -
Kutmishim, baxt bo'ling, faqat baxt, xolos...

Charxpalak aylanib, suv bo'lib quyilsam sizga,
Keyin yetti yoqqa chirpiratib uloqtirsa yer.
Ko'ksingizdan otolib chiqqan har bir so'z, izhor,
Mening ko'zlarimdan to'qib bersa she'r!

Uchrashsak, yo'lma-yo'l she'rlar o'qisam,
Yonimda berilib tinglab ketsangiz, indamay,
She'r - umrim!
Umrimda barchasi sizga atalgan,
Siz borsiz barida,
Qanday yig'lamay?!

Yuragimda qadamlar,
bir.. ikki... uch... sanayman,

Kelyapsiz shu atrofda, yaqin qoldi, bilaman.
 Muhr bosing: "Bir umrlik mening" deb yonsin
 Lablaringiz haroridan sajda o'pgan peshonam!

YO'L

Ichimdan hayqiriq kelyapti, do'stim,
 Qaniydi, qorishsam yomg'irga nurdek.
 Hech kim eshitolmas qo'shiq tinglasam
 Ko'zlariningda cho'milgan nurdek.

Sig'mayapti ruhim tanga, o'zing ayt,
 Sensiz jonim buncha azobda notinch.
 Ko'zimni yumborda borsan, mavjudsan,
 Ko'zlarimni ochsam, boshlanar qo'rqinch!
 Suralar o'qiymen vahima bosib,
 Dahshatrang torayar ko'kning qafasi.
 Isyon qulog'ini o'pib shivirlar
 Alla aytayotgan ishqning nafasi.

BIRINCHI MART

Qora ro'molini o'radi osmon,
Sirlar oymomaning yuragin yordi.
Tars etib uzildi joni fevralning
Va kimdur o'kirib yig'lab yubordi.

Chor-atrof azozil hislarga ko'mik,
Ajiz gul boshini yashirar behol.
Alag'da ko'nglingning ko'chalariga
Aksa urib kirib keladi bahor.

O'n sakkiz ming olam yorisha boshlar,
Sarang xayolotlar yetti rang bo'lib.
Obdor kelinchakning go'shangasidek,
Olov his oqadi pardalar to'lib.

Surxon tog'lariga qo'nadi bulut,
Qora ro'molini yechadi samo.
Sharqiroq tonglaring muborak bo'lsin,
Shu tunda yangidan tug'ilardunyo.

Yuragundi qadamilar,
bir, ikki, uch, sanayman,

O'ZIMGA VA SIZGA

Ko'zlarini arting yig'i deganning,
 Tugating xo'rlikning hukmronligin.
 Simirib kulgining qadahlarini,
 Uyg'otib yuboring baxtning tongini.

Ko'z yuming dunyoning o'yinlariga,
 Eshitmang, kar bo'ling, huraversinlar,
 Muhabbat bag'rige telbadek kirib,
 Indamang, jim seving, kulaversinlar.

Soxtalardan tozalang dunyoyingizni
 Kechish kerak vaqtida qo'rmasdan keching.
 Tovonga yopishib yig'lasin yo'llar,
 Ketish kerak bo'lsa, Siz shartta keting!

Faqat bir Ul Zotga ishoning, sizga
 Eng yaxshisin atab qo'ygandur oldda,
 Hali siylanasisiz to'la baxt bilan,
 Yarim-yorti g'amlar qolganda ortda.

TAXAYYUL...

Siz ko'nglimga kirib kelasiz,
Baxtvar bo'lar o'n sakkiz olam.

Tonglarim otganda ismingiz aytib
Va ufqning ortiga botib ketar g'am.

Qo'limdan tutadi hur-u malaklar,
Issiq bulutlardan oyog'im kuyar.
Bunda hatto yashil xazonlar rangi,
Odamlar bir-birin turadi suyab.

Nafas olsam, havo to'la mushk-anbar,
Sochlаримни о'rar shivirlab shamol.
Qulog'im o'par xabar, kutasiz, Odam,
Behisht bog'larida menga intизор.

Qo'llаримни uzatsam, osmon kaftimda,
Sizga bormoq uchun qanotlar kerak.
A'rofning shabiston kechalarida
Ishqsirab quyoshga aylanar yurak.

Libosim sabuhiy ranglarda oppoq,
Ko'nglim-ku - nilufar gullardan hadya.
Kapalaklar o'ynab kipriklаримда,
Yiqilsam boshimni silar sajjoda.

Pokdomon tuyg'ular atrofda suzar,
 O, qanday dunyo bu hech kim bilmagan?!
 Shabnam ichgan maysa kaftida nurli
 Odam va Havvoning izi ketmagan.

Bag'rim butunlashib borar, habibim,
 Sevgingiz sehridan mudrab bedor vaqt.
 Bir bor boqqan edim kipriklar osti
 Ko'zlarining to'kardi farah.

Qaqnuslar uchadi osmon to'ldirib,
 Salavot aytadi juft-juft oqqushlar.
 Ko'kdan tushib kelar g'ayb imomlari,
 Uning nomi birla nikoh o'qilar...

Daraxtlar bag'rida munaqqash visol,
 Kaftimda tutaman kavsari suvlar.
 Bulutlar orti so'ng – bog'i Eramda
 Go'shangang to'qishgan ohular guldan.

Yuragimda hayrat otadi ildiz,
 Yarador ruhimga lab bosar qushlar.
 Bu kech yelkangizga boshimni qo'yib,
 Tushimda ham sizni ko'raman, tushlar.

ILOJ

Tunning chirog'ini o'chirdi osmon,
Ko'nglimni quchoqlab uxlaydi sog'inch.
Hadiksirar ko'zlarimda bir musicha,
Yuragimning dunyolari notinch.

Xiralashib borar xayol ko'zgusi,
Oy ham derazadan jilmayar ma'yus.
O, gulga ko'milgan yer savatida
Yumalab yotibdi bir tandir yulduz.

Ruhimni siqimlab sochadi azob,
Ko'zlarimdan ketmish kulgi izlari.
Yomon ko'rib qoldim raqamlarni ham,
Sensiz kunlarimni sanagan sari.

Bir buyuk ishq qasri bunyod etgandik,
Nahot nurab ketsa bu muhtasham dil?
Yana chalkash bo'ldi baxtga eltar yo'l,
Yana uzoqlashib ketmoqda manzil...

Poyoni bormikin tumanlar faslin,
Qaydan bino bo'lmish bu serurug' dard?
Xayollarim bandi, tushim qamalda,
Alamda bo'g'zimdan tutar muhabbat.

Nogahon uchishni unutgan qushday,
 Ruhimdan uzoqlab bormoqda loshim.
 Sensiz kunlarimni yoritmoq uchun
 O'g'irlab kelaman endi quyoshni.

MUHABBAT YURTI

Tuyg'u bo'ldi qontalash, uvishdi dil, uvishdi,
 O, muhabbat yurtidan ikkimizni quvishdi.

Dod dedim, ovozimni sen eshitding, yorijon,
 Poygaklarga to'kildim, telba deya kulishdi.

Zamin ag'anab tushdi ko'ksimning ayvoniga,
 In qurib shu bahorda qaldirg'ochlar qunishdi.

Labimda qotib qoldi yarangning malhamlari,
 Ko'zimdan ko'zinggacha ishq atalmish sir uchdi.

O, nafaskor jadobay qubabasini uchdi
 Har keltiqib slop felau qasiday
 Meni chay chay 
 Yig'ladim

Ruhoni isyonning chingiroqidan
 O'limlar tirlidi telar men tomon.
 Meni bu azobdan tortib ol, qutqar,
 Toki bu janglardan chiqay deb omon.

TONG!

Ko'zlariningda uyg'onar quyosh,
Hijrongullar boshin ko'tarar.
Shart bag'rimga bosib osmonni,
Men quyoshni yaxshi ko'raman!

Dimog'imda sog'inchning isi,
Erka ruhning baland parvozi.
Tomchilarga lablarin bosgan,
Biram shirin ishqning ovozi.

Bashar sarmast Haqning poyida,
Qaqnusyurak tuyg'ular uchar.
Bulutlar bag'rida mittigina ishq –
Yo'rgak ichra oppoq nur ichar.

Bir ajib sukunat kuylaydi qo'shiq,
Gullar ranglarini etib qo'yar fosh.
Qaro ko'zlariningda uyg'onib, porlab
Va yelkangda uxlab qoladi quyosh.

Poyoni bormikin tumanlar faslin,
Qaydan bino bo'mish bu serurug' dard?
Xayollarim bandi, tushira qamalda,
Alanda bo'g'zindan tutar muhabbat.

YIG'LADIM

Mening qanotimdan sachragan qon
 Ko'zlaringga qasos bo'lib to'lgan kechada,
 Hatto barmog'imga bir tikon kirsa,
 Yuragingga qonlar to'lgan kechada
 Yig'ladim...

Ruhimdan balandlab ketdi dardlarim,
 Dod desam, bo'g'zimda yig'ilar qotdi.
 Dil degan o'zandan toshgan daryolar,
 Yerdan bunyod edim, osmonga otdi...
 Yig'ladim...

Kaftim orasidan sizib chiqar o't,
 Ko'ksimga bosgandim – lov etdi ko'ngil.
 Kuygan barmoqlarim so'z teradi, so'z;
 Tilsiz she'rلarimning qismatin ko'rgil....
 Yig'ladim...

Yuzimni to'sganda shaffof yolg'onlar,
 O, naqadar jirkanch ko'rindi hayot.
 Har kun bir xil o'yin baxtli niqobda,
 Meni charchatding, ey, nodon odamzod.
 Yig'ladim...

Ruhoniy isyonning chinqirig'idan
 O'limlar tirilib kelar men tomon.
 Meni bu azobdan tortib ol, qutqar,
 Toki bu janglardan chiqay deb omon.

YOMG'IR ERTAGI

Dunyo chaqaloqdek ketadi hurkib,
Yig'latib cho'miltiar ona-tabiat.
Har maysa, har nihol yuzlarin o'pib
Ko'kdan to yergacha poklanadi dard.

Muzdek nur ho'playdi yig'loqi bulut,
Yelkamga osilib g'ashlanar xayol.
Sochlarimni dengiz qo'liga ulab,
Ko'kdan dur sochadi moviyko'z ayol.

Tomchilab-tomchilab yog'yapti sog'inch,
Sizga ham nasibmi telbalik baxti?
Selyurak shamollar kurakni niqtab
Tezlashib yog'moqda isyon shiddati.

Sukut shovqinlarga qamalgan tuyg'u,
Ko'lmakda turlanib soch yuvadi moh.
Ko'nglin chaqmoq urgan bir qizcha yig'lar
Kiprigidan sachrab tim qora siyoh.

Shabning libosiga berkinib roviy,
Eski ertagini boshlaydi mahzun.
Birdan tiriladi uch bahodir ham,
Ishqning nomi bilan o'qilar afsun.

OSMON

Osmonning havorang ko'zi qizarib
 Yelkamga bosh qo'yib botadi quyosh,
 Ko'zlarimni kishandan ozod etadi ko'zyosh!

Ruhim alangalar, uyg'onar maysa,
 Borliqqa quyilar cheksiz sukunat,
 Lablarim kuydirar ishq ta'mli harorat!

Cho'g'lanar ko'ksimda bir hovuch sevgi,
 Yutinsam, bo'g'zimda izhor gullaydi.
 Qalbimda men nomin topmagan
 o'sha ishq ulg'aydi!

Chandiqlar o'tmishdan qolgan xotira,
 Yurakda tilaklar oppoq libosi.
 Ruhimda dahshatli kuladi yig'ilar ovozi!

Biram go'zal biram shirin ſetdin quzasi,
 Ko'zingizga cho'kib ketsam torqinashin!
 Quleg'imga hayqirad fuisseisishop im salo!

Yuragim - baxt yashitilgan xazari,
 Yaratgan Zot kalitini sizga beribach-

TOZA RUH

Ruhimning eng baland minorlarida
Bulutlarga eltar bir yo'lak bo'lsa.

Tunda koinotni uxlatib qo'yib
Oymomaning yuzidan o'psam.

Keyin huv yulduzlar yig'lamaydimi,
Zangori havolar to'kilsa bir-bir?

Kaftimda gul yasab olsam ulardan,
Bag'rimga mahkam bosib bulutni.

Ufqning ko'zlariga qulasam
Va tinglasam shamol skripkasin,

Barmoqlarim chalsa mo'jiza raqsin.
Quyoshning bag'rida uyquga ketib

Hamma yulduzlarga qo'ysaydim ism.
Kuy taralsa, sen-u menga tanish kuy,

Yig'lasam baxtni taniyolmasdan.
Rostin ayt, azizim, ko'zimga qara!

Ketsam nima?
Ketmasam,

Qolsam, qolmasam?

Shabning libosiga berkinib roviy,
Eski ertagini boshlaydi mahzun.
Birdan tiriladi uch bahodir ham,
Ishqening nomi bilan o'qilar afsun.

SANDIQ YA

Yuragim – baxt yashirilgan qulf-sandiq,
 Kalitin berkitdim siz bilgan joyga.
 Ko'nglim qaynar xumcha – so'zlar tillarang,
 Hukm uchun sehrlangan so'zlar kifoya.

Ko'zlarim kashf etgan kichik dunyomda
 Mehr uzra mehr poyandoz yopmisht.
 Gullarning ildizi tomirim bo'y lab
 Mushk isli muhabbat otayotir nish.

Ufqqa rangin sochar olovrang izhor,
 Xayollarim yodingizni chizganda pinhon.
 Lablarimda e'zozlasam ismingizni,
 Bo'g'zim qizir va ko'ksimga sig'maydi jon.

Quvonchimga doya bo'lar sizli tuyg'u,
 Biram go'zal, biram shirin so'zlar paydo.
 Ko'zingizga cho'kib ketsam tog'day bo'lib,
 Qulog'imga hayqiradi baxtli nido!

Yuragim – baxt yashirilgan sandiq,
 Yaratgan Zot kalitini sizga bermish.

Yerning qulog'iga shivrlasani, bas,
 Ha, nafasini eshitdi Xudo!
 Yuragimni eshitdi Xudo!

AYAJONIMGA

Bir suvrat ismini mehr deb qo'ysam,
Jonimga tutashib ketadi go'yo.

Qarasam, mehriga to'ymaganimdek,
Quchog'icha issiq emassan, dunyo.

Jilmayib turadi hatto qoshlari,
Baxtning yo'llariga ketgan tutoshib,
"Ayajonim manim" deganim sari,
Ko'zimdan sevinchlar bormoqda toshib.

Bitta qalamingiz bo'l sammikin-a,
Dardingiz pinhona ko'chiradigan
Va yoki o'chirg'ich bo'l sammikin-a,
G'amlarning izini o'chiradigan?

Suratda ming sir-u, ming jilva mehr,
Koinot nuri jam yuzlaringizda.
Nasib etsin sizga quyosh nafasi,
Men isinib yashay ko'zlaringizda.

XOTIRA

Xotira – yuragim yo'qolgan surat,
Onani chizmagan surat og'riqli.
Do'stijon, kulgilar ko'ksidagi dard,
Eslasam... eslashga arzimas, balki...

Bobom! Yelkalab derdilar, uchgın,
Quchoqlab o'ynardim havoni.
Ertaroq ulg'aydim, erta angladim
Meni anglamagan dunyoni.

– Bor, – dedilar yaxshilik tomon,
Tanitdilar orni, hayoni...
Mehrdan-da mehribon buvim
Boshlarimdan sochdi duoni.

Tovonimga sanchildi taqdir,
Ilinjimni tutdim hovuchlab.
Ko'nglim uzra sha'bon kechasi
Azob yog'di tomchi-tomchilab...

O'sdi bo'yim, o'sdi dardlarim,
Ichimda bir yonadi nido,
Yerning qulog'iga shivirlasam, bas,
Har nafasim eshitdi Xudo!
Yuragimni eshitdi Xudo!

SIR

Bu qandoq muhabbat, bu qandoq tuyg'u,
Ko'ksimdagi jonim – jilovsiz tulpor?
O'zim kuz bag'rida suzib yuribman,
Yuragimga kirib kelmoqda bahor.

Bu qandoq qahraton – qismati gullash,
Ertasi baxtlidir hamma kechaning.
Taqdiri kimgadur quyosh bo'l mishdir,
Olovlardek yonib, shamdek o'chganning.

Yashillik istovdim tugamaydigan,
Tangrim hadya qildi gurkiragan ishq.
Oq yomg'irlar yog'ib Hiro tog'ida,
Tonggi tushlarimga kiryapti behisht.

Olovga qo'ngan ko'nglim – qaqnus qush,
Jon-u jahonimni yoqar jimgina.
Ajab, dard kelganda bir tomchi to'kmay,
Endi yig'layapman baxtliligimdan...

ONAMGA

Ko'ksingizga boshimni qo'yib jimgina,
 Kuzday qo'yningizga to'kilib ketsam,
 Onajon, yuzingizga yuzimni qo'yib,
 Maylimi, yig'lasam...

Tovonimga yarashgan qonli siniqlar,
 Ko'nglimga tortilgan tarsakilar ham.
 Dunyodan-da katta bag'ringiz ichra
 Yashirinsam...

Kuragimga sanchilgan zaharli o'qlar,
 Boshimdagi dubulg'a hayotday og'ir...
 Onajon, onajon, yuragim emas,
 Yurakka sanchilgan o'qlarim og'rir...

QUTLOV

Dimog'imga to'lib mushk-anbariy ishq,
Ruhimda ochildi yosuman gullar.
Assalom, ko'nglimga xush keldingiz-ey,
Nur yutib yuborgan tillarang tunlar!

O, bunchalar go'zal ko'rinnish hayot,
Yanog'imga barmog'in bosdi kulgular.
Bir qo'linda dubulg'a, birida qilich,
Qarshimda tiz cho'kib turar qayg'ular.

Pushtirang, siyohrang bulut ishq rangda,
Osmonimni to'ldirdi qaqnus parvozi.
Daryolar ustida yugurib yursang,
Ko'zlarimni yumsam – dengiz ovozi...

Cho'g' bo'ldi sizli she'r aytganda labim,
Ko'ksimdan uchirdim so'z qushlarini.
Mahzun mudrayotgan xayoldan hurkib,
Uyg'otib yubordim gung tushlarimni...

Assalom, ko'nglima xush keldingiz-ey!

OG'RIQLI TILAK

Sen uchun o'lganman,

Yo'q! Unday emas,

chunki o'lganlar ba'zida

vaqtı-vaqtı bilan

xotirlanadi.

Men bir quvg'indi

xayolman daydi,

Tunlar sog'inch degan

dahshatli azob.

Faqat menga kuchin

ko'rsatib botir bo'ladi.

She'r bo'ladi, sher bo'ladi...

Chekinaman jim,

baxtga yor bo'lgin so'zsiz

va shunday baxt bilan

o'tinglar bir umr

baxtli va yolg'iz.

Sanaym...
Tinglayman...
Men yana...

Ayting, yu...

ILTIZ

Taqdirimga boylangan,
Ishqi dilga joylangan,
Mendan ketgan izlari
Ko'z yoshim-la loy langan,
Majruh ko'nglim qiy nalgan.

Tilagi orzumdek oq,
Nigohi solar titroq,
Qiyin bo'ldi minglardan
Uni tanlamoq, topmoq,
Ayting, menda ne gunoh?

Bo'g'zim to'la qizil cho'g',
Hijron gulxan, dilim cho'g',
bag'rim - armon tutuni,
ko'ksim to'la qizil cho'g'.
Qarshimdagi ishq yo'li -
Qadam qo'ysang, qaytmoq yo'q.

Bir kun ilinjim nolam,
Ko'zlar ingda bo'lar jam,
Ikki dunyo baxt bersin
Parvardigori olam!
Parvardigori olam!

YANA SIZGA

Quyosh – yuragimning qaynoq nafasi,
 Bo'g'zimni kuydurar olovli bir dard.
 Labimda qalqiydi bir yutum sog'inch,
 Eshikning ortida xo'rsinadi baxt.

Yomg'irda ivigan bahor ko'ylagi
 Ko'nglim anhoriga rayhon to'shaydi.
 Quyosh mayglayimga qo'ngan humoyim,
 Yonib turgan ko'zi sizga o'xshaydi...

SEZGI

Chalindi muhabbatning juft qo'ng'irog'i,
 O'n sakkiz olamni quchdi bu jarang.
 Siz uchun tanlagan va asrab kelgan
 Yaratganning yaratganini asrang!

Sanayman havoning nafas olishin,
 Tinglayman ninachi yig'ilarni.
 Men yana yig'ladim sizdan uzoqda,
 Ayting, yuragingiz og'rimadimi?

YASHAYAPMIZ

Men sensiz-u, sen mensiz,

Yashayapmiz bilgancha.

Kimning qalbi o'rtanib,

Kim bag'rini tilgancha.

Yer aylanar bamisli

Bizga teskari, dalli.

Yo'llar bizni ayirar

Sog'inchim oshgan sari.

Boshimizga keldi dard,

Bemavrid hijron keldi.

Senga qanday, bilmadim,

Menga ko'p yomon keldi.

Sog'inchning kosasidan

Bir talx boda ichdim.

Hasrat bilan uchrashib,

G'amlar bilan tanishdim.

Ismingni tonglarimdan

Olib ketdi qaqnuslar.

Qoldim qo'lim cho'zgancha,

Zor yig'ladi sof hislar.

Yelkamni ezdi sog'inch,
 Ko'zimni yoshlayapman.
 Sen ketgan shu yo'llarga
 Termulib yashayapman...

SIZ DESAM...

Siz desam, to'rt yonim bahorga tutash,
 Siz desam, lablarim harorga tutash,
 Dimog'im to'ldirib ishqdan kuylasam,
 Bu ishqning taqdiri "yor-yor"ga tutash.

Siz desam, daryolar ko'zimga ko'chgan,
 Siz desam, kulgilar ko'nglimni quchgan.
 Bir sirim malaklar Unga yetkazib,
 Kaftlarimni poklab duolar ko'chgan.

Siz desam, so'zlar kashf hech kim bilmagan,
 Siz desam, tahajjud meni chorlagan,
 Umrimda eng buyuk topmishim, baxtim -
 She'rimsiz, dunyoga hali kelmagan.

ALPOMISHGA

Har kun ko'rgan tushlarim
O'chmas sira yodimdan.
Alpomish kelar emish
Baxtning saman otida.

Shamolda uchib kelar,

Bulutni quchib kelar,
Sog'inchlarning tugunin
Tugallay yechib kelar.

So'lim voha tog'lari

Nigohidan yorishar.

Yurtim, deya or uchun

Adir oshar, qir oshar.

Yo'llariga ko'z tikib

Sog'inch o'n sakkiz yoshi.

Ey alpim, tashrifingdan

Qurisin ko'zim yoshi.

G'animing ne toshi bor,

Yorman, dardin jim yutgan.

Sabrimni ro'mol qilib

Barchin yetti yil kutgan.

**Alpomishim, lochinim,
Sadoqatim nisordir.
Ko'ksimdagi buyuk ishq
Menga sendan yodgordir!**

SO'ROV

O'n sakkiz bahorim – bokira hislar,
Qaysar tuyg'ularim mudom tannozdir.
Bahor quyoshimni yetaklab kelgan,
Mening quyoshimning yuragi yozdir.

Buncha ishqingizning osmoni intiq,
Mening quyoshimni olib ketgani.
Bir yo'l toping, izlang, qidiring chora –
Ko'nglingizga ko'nglim yetgani!

Baxtlar ko'rdingizmi yoki ko'zimdan,
Mudom yuragingiz sevgi saylimi?
Ismimga joy bormi yuragingizda,
Shu joyda bir umr qolsam, maylimi?

KO'NGLINGDAGI BAHORMAN

Bilganim sen o'zingsan,

Kulganim, sho'x so'zimsan,

Baxtga taklif etilgan,

Ahdga taklif etilgan.

Yo'lingga intizorman,

Ko'nglingdagi bahorman.

Chin ashkingga saylangan,

Chin ishqingga tanlangan.

Baxtning humo qushidek,

Qizaloqning tushidek,

Dardim yutib yashadim,

Baxtni kutib yashadim,

Ko'z yoshim dengiz to'ldi,

Bardoshim tengsiz bo'ldi.

Sabrim tutib yashadim,

Seni kutib yashadim.

Ko'zlariningdan aylanay,

Izlariningga aylanay.

Borligingga tashakkur,

Yorligingga ming shukur.

Quvonch, sevgi, shodlik, baxt,

Hammasiga turgum taxt.

Xudoyimdan so'rganim,
 Peshonamda ko'rganim.
 Yig'lab-yig'lab kutdim-a,
 Bo'zlab-bo'zlab yetdim-a!

 Qullug' bir senga atab,
 Qo'ng'ir sochlarim tarab.
 Yonginangda yuraman,
 Jonginangdan uraman.
 Izhorim chin, yorijon,
 Ozorlaring xo'p yomon.
 Endi ochib dilimni
 Aytsam senga chinimni.
 Seni yaxshi ko'raman!
 Seni yaxshi ko'raman!




GULJAMOL OPAMGA

Bir yig'lamaymizmi....
 hech kim tushunolmas notalarda.
 Baxtdan sarxush,
 Darddan sarxush,
 Sevgidan sarxush.
 Ovozsizmi, baqiribmi – yo'qdir farq!
 O'zi bizni hech kim tushunmaydi-ku...
 Chin yig'laylik, ko'ngil choklari
 sitilib-sitilib,
 to'kilib-to'kilib,
 so'kilib-so'kilib...
 Yelkalar juftining borligin sezsin!
 O'lmay turib,
 to'lib-to'lib,
 oqib-oqib,
 poklansin kibrning gunoh libosi...
 Yig'imizga aylangisi kelsin kulgining.
 Keyin birgalashib, yetaklashib,
 Bir yig'lashib, bir yig'lashib
 Dunyosini shovqinga qamab .
 Faqat Unga ayon joylarga ketaylik...
 Axir, bizni hech kim sog'inmaydi-ku...
 Ketsak, ketaversak yo'lning oxiri
 Bizni adashtirsa baxt so'qmoqlari,
 Dengiz ham yig'larkan,

Eshitdingizmi?
 Manglayi sho'r bosgan ishq qirg'oqlari...
 She'r aytsak,
 Tillarang bo'lsa so'zleri.
 She'r lashsak,
 Kuylasak,
 yana yig'lasak,
 armonlar bearmon raqsga tushsa...

Bir yig'lamaymizmi
 to'kilib-to'kilib,
 darddan sarxush,
 baxtdan sarxush,
 sevgidan sarxush...



GUI MUNDARIJA

Mahmud Toir.

So'z – bo'yoqlarsiz ham go'zal, mo'jiza.....	6
Vatan.....	7
Alpomishga.....	8
Xonzodaman.....	9
Baxt tongi.....	10
Pushkinga.....	11
Baxtli qo'shiq.....	12
Ovunch.....	13
Isyonkor.....	14
Xayol.....	15
Keldim.....	16
Yolg'izlik.....	17
Savol.....	18
Yomg'irli kayfiyat.....	19
Og'riq.....	20
So'ngso'z.....	21
Ko'ksimdag'i yo'lbarslar.....	22
Eng go'zal tilak.....	23
Dadajonimga.....	24
Tug'ilish.....	25
Ovoz.....	26
Eslatma	26
Undov.....	27
Xavotir	28
Men borman.....	29
...ga.....	30
Yusuf singlisi.....	31
Kenja botirga.....	32

Yo'l.....	33
Birinchi mart.....	34
O'zimga va sizga.....	35
Taxayyul.....	36
Iloj.....	38
Muhabbat yurti.....	39
Tong!.....	40
Yig'ladim.....	41
Yomg'ir ertagi.....	42
Osmon.....	43
Toza ruh.....	44
Sandiq.....	45
Ayajonimga.....	46
Xotira.....	47
Sir.....	48
Onamga	49
Qutlov.....	50
Og'riqli tilak	51
Iltijo.....	52
Yana sizga.....	53
Sezgi.....	53
Yashayapmiz.....	54
Siz desam.....	55
Alpomishga.....	56
So'rov.....	57
Ko'nglingdagi bahorman.....	58
Guljamol opamga.....	60

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

J 24

J 24 Jamolova, Xonzodabegim.

Baxt tongi [matn]: *she'rlar* / X. Jamolova.

- Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. - 64 b.

Adabiy-badiiy nashr

XONZODABEGIM JAMOLOVA

BAXT TONGI

She'rlar

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *N. Soatov*

Musahhih: *Sh. Hakimova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

(98) 128-30-04.

Bosishga 20.12.2020-yilda ruxsat etildi:

Offset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 $\frac{1}{32}$.

Offset bosma. Hisob-nashriyot t. 2,0.

Adadi: 5000 nusxa. Buyurtma №368.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.

3175 сен



XONZODABEGIM JAMOLOVA

BAXT TONGI

Xonzodabegim Jamolova 1999-yil 27-mart kuni Toshkent viloyatining Bekobod tumanida tug'ilgan. Hozirda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabasi. O'zbekistonda ilk bor o'tkazilgan xalqaro sport sammiti, Respublika lider qizlar festivali loyihasi muallifi. Rus, ingliz, turk va arab tillaridan badiiy tarjimalar bilan shug'ullanadi. "Istiqlol shukuhi", "Istiqloldan baxt topgan Vatan", "Sir bo'yи ilhomlari" nomli she'riy bayozlarda ijodiy ishlari chop etilgan. Respublika yosh ijodkorlarining 2019-yilgi Zomin an'anaviy seminari ishtirokchisi.

"ADABIYOT"
NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-6779-7-5

9 789943 677975